



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024  
2/2-сон



## МУНДАРИЖА:

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Соҳибназар Каримов</b> Тасаввуф таълимотида тарбия хизмати масаласи	5
<b>Diyor Haqberdievich Xolmamatov</b> Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar	11
<b>Shohida Kamoliddin qizi Jo‘raboyeva</b> Eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslari	15
<b>Rustam Nuridinovich Jiyamuratov</b> Hududiy eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlar	22
<b>РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Ziyobidin Shaminovich Suvonov</b> Sun‘iy intellekt va uning imkoniyatlari	27
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Фарход Бахриддинович Ахроров</b> Ўзбекистонда ер ресурсларини баҳолашнинг экологик-иқтисодий услубияти	31
<b>Shexroza Madjitolovna Karimova</b> Qovoq – funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo	36
<b>ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ</b>	
<b>Феруза Асатовна Ишонкулова</b> Необходимые условия для успешной деятельности предпринимательства в Республике Узбекистан	39
<b>Rahmatillo Miralimovich Egamov, Rushona Sheraliyevna Husainova</b> Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni	45
<b>ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Сарвар Аюбовна Исхакова</b> Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда тadbirkorlikнинг салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари	49
<b>Zoxid Sobirovich Axmedov</b> Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qo‘llanilishi	53
<b>Обид Мамаюнович Пардаев</b> Хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш ҳисобига маҳаллалар ободлигини таъминлаш масалалари	57
<b>Фарход Анварович Сафаров</b> Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг комплекс стратегик таҳлилинини TOWS-матрицаси ёрдамида амалга ошириш имкониятлари	60
<b>Orzujon Mamasoliyevich Rajabov</b> Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
<b>Bekzod Maxsudovich Abdumannonov</b> Ekologik toza jamoat transportidan samarali foydalanish – avtomobillar tirbandligini bartaraf etishning kafolatidir	70

UDK 332.1

**Raxmatillo Miralimovich Egamov** – i.f.f.d. PhD. Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti “Biznesni boshqarish” kafedrası mudiri

**Rushona Sheraliyevna Husainova** – Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 301-menejment guruh talabasi

## HUDUDIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI

**Annotasiya:** ilmiy maqolada viloyatimiz va rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mintaqaviy hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishida tutgan o‘rni, uning sohalari kesimida rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Shuningdek, bu borada zamonaviy ilg‘or xalqaro va mahalliy tajribalarni umumlashtirgan holda kelgusida ushbu sohalarni yanada rivojlantirish borasidagi taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, biznes, tadbirkorlik subyektlari, hududiy iqtisodiyot, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish.

**Kirish:** Samarqand viloyatida iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarishni har tomonlama mustahkamlab borish, aholining bandligini ta‘minlash, korxonalarda ish o‘rinlarini yaratish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini tezlashtiruvchi eng asosiy yo‘llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida bizga g‘ov bo‘layotgan to‘siqlarni bartaraf etishni ta‘minlash maqsadida so‘ngi to‘rt yilda yurtimizda biznes vakillariga bo‘lgan e‘tibor tubdan o‘zgardi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”[1]gi 2021-yil 3-dekabrda PF-29 sonli farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2019-yil 13-avgustda[2]gi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.

Bugungi kunda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish faoliyatida yangi mulkiy munosabatlardagi o‘zgarishlarning amaliyotda qo‘llanilishiga, iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirishda samarali innovatsion faoliyatlarni kengaytirishga alohida e‘tibor berish va mazkur kichik biznes sohasini ilmiy tadqiqotlar asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari belgilash jarayonida Respublika va xorij iqtisodchilari hamda mavzuga doir faoliyat olib borayotgan bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot faoliyatida uchratish mumkin bo‘lsa-da, lekin tadqiqot asosida o‘rganilgan ilmiy-iqtisodiy adabiyotlar va ishlanmalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini tadqiq etishning ilmiy, nazariy asoslari va usullari A.Smit, Y.Shumpeter, X.Gross, R.Bruksbenk, V.Xyubner, R.Xizrich, M.Piters, A.Xosking, G.Jounz, L.Abalkin, V.Abchuk, A.Busigin, Yu.Osipov, A.Shapiro, M.Balashovich K.Dougerti, A.Vebster, E.Vigdorchik, A.Xachatryan, S.Ayvazyan, V.Mxitaryan, N.Egorova, A.Larionov, V.Dolgopyatov, O.Zamkov singari xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Respublikamizda bozor iqtisodiyotida o‘tish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumnazariy, mintaqaviy va tarmoq muammolari bir qator respublikamiz olimlarining ilmiy ishlarida keng yoritilgan [4,5,6,8].

Viloyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va bevosita kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borgan boshqa bir qancha taniqli olimlar esa, o‘z ilmiy ishlarida iqtisodiyotning mintaqaviy, tarmoq, infratuzilma obyektlarini modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishgan[3]. Shuni ta‘kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan respublikamizda kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish borasidagi tadqiqotlar yetarli emas yoki bo‘lmasa ko‘pchiligi tadbirkorlikning nazariy muammolariga bag‘ishlangandir. Shu sababli, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznesni tasniflashni takomillashtirish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholash, iqtisodiyot va mulk sektorlari rivojlanishidagi o‘zaro


aloqalar hamda nomutanosibliklarni aniqlash, kichik biznesni rivojlantirishdagi institutsional o‘zgarishlarni ilmiy tahlil etgan holda ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash kabi ilmiy-nazariy muammolar, kichik biznes genezisi va rivojlanish qonuniyatlarini, antimonopol siyosat, raqobatchilik muhiti va mexanizmlari bilan bog‘liqlikda tizimli tahlil etish, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyoti barqarorligini baholashda samarali qo‘llanilayotgan usul va modellar yordamida respublikamizda kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlaridagi rivoji hamda istiqbollarini baholash, kichik biznes subyektlari uchun iqtisodiyot tarmoqlari jozibadorligini zararsizlik tahlili yordamida aniqlash, kichik biznes subyektlari “hayotiy siklini” uzaytirish, ularni barqaror va mutanosib rivojlanishini monitoring qilib borishni ta’minlaydigan qo‘shimcha statistik ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, respublikamiz mintaqalarida kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini aniqlash kabi ilmiy-amaliy muammolarni hal qilish va amaliy tatbiq etishga haqiqiy zarurat tug‘ilmoqda

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy maqolamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarini ta’minlashda kuzatish hamda taqqoslama tahlil, induktiv va deduktiv, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mustaqillikka erishgandan so‘ng Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat farovonligining asosiy omillaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, xalqimiz, aniqrog‘i uning salmoqli qismi har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ham omilkorlik bilan hayot kechirishga, ya’ni imkon darajasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga intilgan. Shuni inobatga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishish kesimida hududda tadbirkorlikni shakllanishi hamda rivojlanishini tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak.

Bugungi kunda viloyatimizdagi amalga oshirilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollarini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlari quydagilardir.

Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida 2023-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlar hajmi sanoatda-14 561,2 mlrd. so‘mni (2022-yilda 3299,1 mlrd. so‘m), xizmatlarda – 19 140,4 mlrd. so‘mni (3682 mlrd. so‘m), qurilishda – 8 350,2 mlrd. so‘mni (1416 mlrd. so‘m), bandlikda-1623,3 ming kishini (1 418,3 ming kishi) va savdoda- 24 934,9mlrd. so‘mni (3130,5mlrd. so‘m), shuningdek qolgan qismi - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi(1-rasm) [9].



**Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlar hajmi<sup>1</sup>.**


1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari hajmining asosiy qismi sanoat, xizmatlar ko‘rsatish va savdo faoliyat turlariga

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

to‘g‘ri keladi. Eng kam ulushi esa bandlik va qurilish sohasi faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Hozirgi kunda kichik biznesni subyektlarining viloyatimiz darajasida qo‘llab – quvvatlashning moliyaviy siyosatini budjet va budjetdan tashqari manbalar, kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash loyihalari va davlat mijozlari hisobiga kichik biznesni qo‘llab – quvvatlash amalga oshiriladi. Shuning uchun ham Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan aniq siyosat amalga oshirilmasa bunday mas‘uliyatli vazifani hech bir hududda amalga oshira olmaydi.

Ilmiy maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini qiyosiy tahlilini amalga oshirgan holda sohani rivojlanishi hamda uni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz. Keyingi yillarda rivojlangan bozor iqtisodiyotida yangi firmalarni tashkil etish jarayoni keskin o‘shib bormoqda.



2020-2024-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni<sup>1</sup>.

Jumladan, viloyat bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2021-yilda 35 022 mingta yangi korxonalar tashkil topgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020 yilda – 27 322 ming, 2022-yilda – 43 130 ming, 2023-yilda – 51 025 ming, 2024-yilda – 55 029 mingga yetgan. Bugungi kunda viloyatimizda biznesning 82,3 foizi qurilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tashkil qiladi.

Kichik va o‘rta biznes ijtimoiy muassasa sifatida faqatgina xizmat va tovarlarni ishlab chiqaruvchi sifatida emas, balki mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini, ijtimoiy barqarorlikni, insoniyatni ishlab chiqarishning asosiy kuchi sifatida rivojlanishini ta‘minlash kabi ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi.

**Xulosa va takliflar:** Bizning fikrimizcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish istiqbollari samarali tashkil etishning ilmiy -nazariy asoslariga tayangan holda, xalqaro tajribalari shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes, birinchi navbatda ma‘muriy nazoratga emas, balki moliyaviy va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj. Shunday ekan, kichik biznes uchun davlat kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat kafolatlari o‘zida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xatti-harakatlarni tizimli ravishda amalga oshirishlari, shuningdek, investor hisoblangan va yuridik shaxslar ro‘yxatidan o‘tishidan qat‘i nazar investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan chora – tadbirlar tizimini yaratishi kerak. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish uchun to‘plangan ilg‘or xalqaro va respublikamizda zamonoviy tajribalarni umumlashtirgan holda kelgusida

<sup>1</sup>Muallif ishlanmasi

mazkur hududni yanada rivojlantirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- xususiylar tomonidan subyektlarini yanada rivojlantirish uchun tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy va kadrlar bilan ta'minlash borasidagi institutsional sohalarini yanada optimallashtirish;

- korxonalarni innovatsion tadbirlar asosida, yanada rivojlantirish uchun xususiylar va davlat korxonalari, xususiylar sektorining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish;

- oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, yirik korxonalar qoshida kichik innovatsion firmalarni va venchur moliyalashtirish tizimi borasida to'plangan tajribalarni joriy etish;

- mahalliy hokimiyat tomonidan maqsadli soliq imtiyozlari va kreditlar shaklida kichik biznes subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar yoki alohida firmalarga imtiyozlar berish borasida moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish;

- katta va kichik ishlab chiqarish korxonalari uchun butlovchi qismlarni (oldin import qilib olib kelingan) mahalliy kichik korxonalarda ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish va h.k.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2021-yil 3-dekabrda PF-29 son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2019 yil 13 avgustda PQ-4417-son qarori.
3. Abdullayev A.M., Abduraxmanov O.X., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki. -T: fan va texnologiya, 2007. – 575 s.
4. Abdullayev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: Mehnat. 2000 y.,
5. Abdusamatov, B. K., and R. M. Egamov. "Level of competitiveness of building products to increase innovative success." (2022).
6. Gulyamov S.S., Dogil L.F., Semenov D. Predprinimatelstvo i maliy biznes. - T.: TGEU, 1996. – s.19-83.,
7. Egamov, R. M. "The role of innovation in construction company management." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 343-345.
8. Kichik biznesni boshqarish / Qosimova M.S., Xodiev B.Yu., Samadov A.N., Muhiddinova U.S. – T.: O'qituvchi, 2003. – 239 b.,
9. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: Sharq. - 365 b., 21. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari/ stat.uz.
10. www.sba.gov, <https://sbecouncil.org>, 23. [https://www.oecd.org/mcm/ documents/C-MIN-2017-8-EN.pdf](https://www.oecd.org/mcm/documents/C-MIN-2017-8-EN.pdf)

<p style="text-align: center;"><b>Р.Эгамов, Р.Хусайнова</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Роль малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии региональной экономики</b></p> <p><b>Аннотация:</b> в данной статье проанализирована роль малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии региональной и национальной экономики Республики Узбекистан, а также тенденции его развития в отраслях зарубежных стран. В результате накопленного передового зарубежного и местного опыта в этой области разработаны предложения и рекомендации для дальнейшего развития данного сектора.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> малый бизнес, предпринимательство, частное предпринимательство, бизнес, субъекты предпринимательства, региональная экономика, развитие предпринимательства в микрорайонах.</p>	<p style="text-align: center;"><b>R.Egamov, R.Husainova</b></p> <p style="text-align: center;"><b>The role of small business and private entrepreneurship in the development of the regional economy</b></p> <p><b>Abstract:</b> this article analyzes the role of small business and private entrepreneurship in the development of the regional and national economy of the Republic of Uzbekistan, as well as trends in its development in industries of foreign countries. As a result of the accumulated advanced foreign and local experience in this area, proposals and recommendations have been developed for the further development of this sector.</p> <p><b>Keywords:</b> small business, entrepreneurship, private entrepreneurship, business, entrepreneurial entities, regional economy, development of entrepreneurship in localities.</p>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.